

KOXLEAR IMPLANTATSIYA-ESHITISHDA MUAMMOLARI BO'LGAN BOLALARNING REABILITATSIYASIGA ERISHISHNING SAMARALI OMILI.

Olimova Nodirabegim Ibrohimjon qizi

Farg'ona davlat universiteti Maktabgacha ta'lif kafedrasi Maxsus pedagogika
yo'nalishi o'qituvchisi

Shaxobiddinova Mohinabonu Farhodjon qizi

Farg'ona davlat universiteti Maktabgacha ta'lif kafedrasi Maxsus pedagogika
(surdopedagogika) yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Koxlear implantatsiya-eshitmaydigan (kar, zaif eshituvchi) bolalar eshituvchilar dunyosiga kirish va dunyoni ovozlar, tovushlar orqali idrok imkoniyatini yaratuvchi hozirgi kunning eng samarali usullari hisoblanadi. Bunday bolalar ovozlar, musiqa, nutq va boshqa tovushlarni eshitish va o'zini jamiyatda, ijtimoiy hayotda erkin iroda qilish imkoniyatiga ega bo'lishiga misli ko'rinnagan yordam beruvchi bu vosita fan va texnika rivojidagi katta ahamiyatga ega kashfiyotdir.

Kalit so'zlar: Nutq, koxlear-implant, reabilitatsiya, maxsus maktab, integratsiya, korreksiya.

Surdopedagogika tarixida eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni o'qitishda so'zlashuv nutqini o'rgatish eng prioritet vazifa hisoblanib kelingan va hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Chunki bu muammoning samarali hal etilishi bolalarning ijtimoiy adaptatsiyasi ehtiyojini hal etuvchi to'laqonli shaxs sifatida rivojlanishini ta'minlashi muqarrardir. Jumladan O'zbekistonda ham ta'lif og'zaki so'zlashuv nutq asosida tashkil etilgan bo'lib nutqning barcha verbal ko'rinishlari yordamchi vosita sifatida qo'llanilib kelinmoqda (U.YU.Fayziyeva, N.Dadaxo'jayeva, D.A.Nazarova va boshqalar).

Eshitmaydigan bolaning so'zlashuv nutqini to'laqonli egallashi uni soqovlikdan, faqat o'ziga o'xshashlar bilan imo-ishoralar bilangina muloqotda bo'la olishi kabi chegaralanishlardan qutqaradi, atrofdagilarning nutqini tushunishi, o'z fikrini nutq orqali o'zgalarga, suhbatdoshga yetkazish imkoniyatiga, ya'ni to'laqonli muloqotga erishishiga, aniq, ravon va tushunarli gapira olishiga imkon beradi. Shuni ta'kidlash joizki hatto eng takomillashtirilgan zamonaviy eshitish apparatlari ham kar bolaga nutqni to'laqonli eshitish va idrok etish imkonini bermaydi.



Oxirgi o'n yillar ichida amaliyotda eshitishida muammolari bo'lgan bolalar reabilitasiyasida yangicha yo'nalish koxlear implantatsiya qo'llanila boshlandi va bu jarayon Rossiya Federatsiyasida hozirgi kunda O'zbekistonda ham qo'llanilmoqda.

Hozirgi kunda koxlear implantatsiya-bu borada karlarga yordam beruvchi eng samarali metod hisoblanadi.Bu moslama eshitishida koxlear muammosi bo'lgan bolalarga atrofdagi barcha tovushlarni eshitish,farqlash,nutqni eshitish,o'z nutqini eshitish va o'qituvchining nutqi,talaffuzi bilan solishtirish orqali uni rivojlantirish imkoniyatini yaratmoqda.Koxlear implant ko'yilgan bolaning eshitish qobiliyati barcha nutq tovushlarini eshitish va farqlash imkonini beradi,yuqori chastotali tovushlarni ham qabul qila oladi(bu bolalarning eshitish porogi-imkoniyati zaif eshituvchilikning 1-darajasiga teng bo'ladi, shuning uchun sekin ovozda aytilgan sirg'aluvchi tovushlarni qabul qilishi qiyin bo'ladi).Hozirgi kunda koxlear implantdan foydalanuvchilar(soni dunyo bo'yicha 2000000 kishidan ortiqni tashkil etgan) va ularning aksariyatini bolalar tashkil etmoqda.Koxlear implant qo'yilgan bolalarning eshitish darajasi barcha nutq tovushlarini,hatto yuqori chastotali tovushlarni ham eshitib farqlash imkonini beradi.Eshitishi birinchi darajali zaif eshituvchilar kabi,faqt past ovoz bilan aytilgan jarangsiz tovushlarni farqlashdagina,qiyinchilik kuzatiladi.Koxlear implantatsiya yo'li bilan eshitishi tiklangan bolalarni eshitishga o'rgatish ishlari ota-onada surdopedagog hamkorligidagi izchil faoliyat orqali amalga oshiriladi.Implant qo'yilgan bolalarni dastlabki o'rganish tajribasidan ma'lum bo'lishicha implant qanchalik erta qo'yilsa ijobjiy natijalarga erishish samarasi yaxshi va qisqa muddatda ko'rindi.

Xulosa qilib shuni aytamanki,implant qo'yilgan bolalar muvaffaqiyatlari va tez reabilitasiyasiga erishish uchun uning imkoniyati,ehtiyoji,ruhiy,emotsional holatini o'rgana oladigan biz surdopedagoglarning korreksiyalovchi yordamimiz zarur.Biz surdopedagoglarning asosiy vazifamiz bolaning eshitish qobiliyatini rivojlantirish asosida so'zlashuv nutqini shakllantirib,rivojlantirib boramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch. –T. Ma'naviyat,2008 yil.
2. Barkamol avlod –O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T. SHarq, 1997 yil.
3. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishslash –davr talabi. 5-J-Toshkent: O'zbekiston, 1977 yil.
4. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari –oliy qadryat. 14-J-Toshkent: O'zbekiston, 2006.



Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Paris, France.

Date: 19th March, 2024

ISSN: 2835-3730

Website: econferenceseries.com

-
5. Maxsus maktab, maktab-internetlari dasturlari majmuasi. – Toshkent 2009 yil.
 6. Umumiy o’rta ta’limning davlat ta’lim standartlari va o’quv dasturi. – T.Sharq,1999 yil.

